



## **O'ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATLARINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING STRATEGIK YO'NALISHLARI**

*Ashuraliyev Ikromjon Sadirddin o'g'li*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar s.f.d., professor. B. Omonov*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada O'zbekistonda davlat xizmatlari tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy davrda davlat boshqaruvini takomillashtirish jarayonida davlat xizmatlarining tutgan o'rni, ularni raqamlashtirish, soddalashtirish va aholi uchun ochiqqligini ta'minlash bo'yicha strategik yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *davlat xizmati, islohotlar, boshqaruv, strategik rivojlanish, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, yagona darcha, elektron hukumat*

**Kirish** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng davlat boshqaruvi tizimida keng ko'lamli islohotlar boshlangan bo'lib, ularning muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xizmatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Aholiga qulay, shaffof va tezkor xizmatlar ko'rsatish bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida Yangi O'zbekistonni barpo qilish yo'lida davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, fuqarolar bilan samarali muloqot tizimini yaratish va xizmatlar sifati hamda ularning qamrovini oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham davlat boshqaruvini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan zamonaviy tizimga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF–158-son Farmoni <https://lex.uz/docs/6600413>



Davlat xizmatlari tizimi – bu nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligining o‘lchovi, balki fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlovchi muhim omildir. Elektron hukumat, raqamli xizmatlar, yagona darcha tizimlari orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatishning soddalashtirilishi zamonaviy davlat boshqaruvi uchun zaruriy shartga aylangan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda davlat xizmatlarini zamonaviylashtirish, ularni xalqaro talablar asosida takomillashtirish va raqamlashtirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Ushbu mavzuning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda davlat xizmatlari tizimini zamonaviy raqamli jamiyat talablariga mos holda takomillashtirish, uning shakllanishi va rivojlanishidagi strategik yo‘nalishlarni aniqlashdir.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- davlat xizmatlari evolutsiyasi va nazariy asoslarini o‘rganish;
- xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan O‘zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilish;
- raqamli hukumat tizimini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- mavjud muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlariga doir takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda O‘zbekistonda davlat xizmatlari tizimi tarixiy rivojlanish bosqichlari, raqamlashtirish jarayoni va xizmatlar sifati nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasi asosida O‘zbekiston uchun mos keluvchi xizmat ko‘rsatish modellariga oid takliflar ishlab chiqishdir.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:**

- dialektik usul – tizimning bosqichma-bosqich rivojlanishini o‘rganishda;
- tizimli yondashuv – davlat xizmatlari tizimini butun sifatida tahlil qilishda;
- empirik usul – real holatlar, statistikalar va sotsiologik so‘rovlar asosida xizmatlar samaradorligini baholashda.



**Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili:** Davlat xizmatlarini nazariy jihatdan ko'plab siyosatshunos va huquqshunos olimlar o'rganishgan ular davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarini o'rganishda o'ziga xos yondashuvlardan foydalangan. Nemis sotsiologi, faylasufi, tarixchisi va siyosiy iqtisodchisi Max Veber davlat xizmatining byurokratik modelini asoslab berdi. U byurokrtiyani rasmiy qoidalar va ierarxiya asosida faoliyat yuritadigan, malakali mutaxassislar tomonidan boshqariladigan tizim sifatida ta'riflagan<sup>2</sup>.

Davlat xizmati ko'rsatish bir tomondan davlat yoki uning homiyligidagi boshqa tuzilmalar, boshqa tomondan fuqarolar yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bugungi ilm-fan ijtimoiy davlat to'g'risida yaxlit, umume'tirof etilgan tushunchani yaratmagan. "Ijtimoiy davlat" tushunchasidagi nisbiy mustaqillikka urg'u berilishi davlatning mohiyati, mazmuni va shakli o'rtasidagi konstitutsiyaviy qat'iy funksional bog'liqlikni ifodalaydi, degan fikr adabiyotlarda ko'proq ilgari suriladi. Ijtimoiy davlat fenomenining mazmunini aniqlashtirish uchun masalaning tarixiga murojaat qilaylik. Ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyoti garchi davlat g'oyasini oziqlantiruvchi ildizlari ancha oldin - davlatning o'zi institut sifatida paydo bo'lishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, u XX asrning ikkinchi yarmida rivojlandi<sup>3</sup>.

Har bir davlatning taraqqiyoti unda davlat xizmatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan ham bo'g'liq hisoblanadi. Huquqshunos olim Y.V.Oxotskiy ta'kidlaganidek, "Davlat qanday bo'lsa, davlat xizmati va davlat xizmatchilari ham, shunday bo'ladi" yoki "Davlat xizmatchilari, ularning intilishi va qiziqishlari qanday bo'lsa, davlat ham shunday bo'ladi". Sababi, davlat xizmatini tashkil qilish, o'tash jarayoni ham to'g'ridan-to'g'ri siyosiy tizimga va rejimga bog'liq hisoblandi<sup>4</sup>.

Shuningdek, davlat xizmatchilarining sifatining tarkibiga va professionallik va kompetitligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Huquqshunos olim D.N. Baxrax davlat xizmatiga ta'rif berib, "Insonlarning, shuningdek davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlaridan biri – bu xizmatdir. Bu tushuncha

<sup>2</sup> Veber.M. "Economy and Society." –T.: University of California Press, 1978. – P. 957.

<sup>3</sup> Omonov. B. Davlat xizmatlari asoslari. –T.: Tafsir Books, 2024. – B. 21.

<sup>4</sup> Охотский Е.В. Государственная служба в Парламенте. – М.: 2002. – В. 14.



turli ma'nolarda hususan, insonning faoliyat turi sifatida, ijtimoiy-huquqiy institut sifatida, davlat organlarining maxsus tizimi ma'nosida qo'llanilishi mumkin. Davlat xizmati – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta'minlashdan, hamda aholiga ijtimoiy madaniy xizmat ko'rsatishdan iborat"<sup>5</sup>, deb ta'rif berib o'tgan .

O'zbekistonlik tadqiqotchi olimlar tomonidan davlat xizmatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy maqolalar va monografiyalar nashr etilgan. Siyosatshunos professor olim B.Omonovga ko'ra, Davlat va munitsipal boshqaruvi tizimini rivojlantirishning servis g'oyasi hokimiyatning konstitutsiyaviy-huquqiy legalligiga, klassik siyosiy va iqtisodiy “xizmatlar yaratuvchi – iste'molchi” sxemasiga asoslanadi<sup>6</sup>. Shu bilan birga, hozirgi davr servis davlati mafkuraviy manbalari davlat bilan fuqarolik jamiyati o'zaro aloqalari va siyosiy tizimda hokimiyat organlari boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Yuridik fanlari doktori, professor S. Komilov o'zining kitobida keltirishicha “Davlat xizmati – bu davlat hokimiyatining doimiy amal qiluvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan institutdir. Uning uning samaradorligi bevosita hodimlarning malakasi, halolligi va boshqaruv madaniyatiga bo'g'liq”<sup>7</sup>.

Umuman so'nggi yillarda G'arbda yuz berayotgan davlat xizmati asosiy tamoyillarining qisman qayta ko'rib chiqilishini quyidagi asosiy yo'nalishlar bilan izohlash mumkin:

- buyruqbozlikning siyosiy roli va undan o'z korporativ manfaatlari uchun foydalanish mexanizmlarini tahlil qilish va institusionallashtirish;
- ma'muriyatdagi siyosiy va kasbiy ibtidolarning oqilona nisbatini izlab topish;
- vertikal ma'muriy iyerarxiyaning rolini kamaytirish, funksional organlarni rivojlantirish;
- u ma'muriyatni markaz tasarrufidan chiqarish, arzonlashtirish, qisqartirish;

<sup>5</sup> Бахрах,Д.Н – А.П Административное право. – М.,1993. – В. 8.

<sup>6</sup> Omonov B. Davlat xizmatlari asoslari. –T.: Tafsir Books, 2024. – B. 36.

<sup>7</sup> Komilov. S “Davlat xizmati va boshqaruvi.” –T.: TDYUU, 2015. – B. 112.



- u mansablarning an'anaviy ma'muriy pillapoyasini cheklash;
- u fuqarolarning ehtiyojlari va umidlariga buyruqbozlikning imkon qadar ochiqligi va "hozirjavobligi";
- u davlat xizmatining madaniy va axloqiy-ma'naviy jihatlariga e'tiborni yanada oshirish.
- "O'zbekiston - 2030" strategiyasi dasturi doirasida davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish maqsad qilinmoqda. Kamida 300 ta davlat xizmati bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkaziladi. Shu bilan birga, mavjud litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlari soni kamida 20 foizga qisqartiriladi, ularning 50 foizi esa soddalashtiriladi. Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha mavjud 300 ga yaqin tartib-taomillarni soddalashtirish choralari ko'riladi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda "3 qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan" va "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Xizmatlarning 40 foizi xususiy sektorga<sup>8</sup> o'tkazilib, shu orqali fuqarolarning davlat xizmatlaridagi shaxsiy ishtiroki 2 barobarga qisqartiriladi. Bu esa albatta korrupsion holatlarni oldini olish inson omilini kamaytirishga qaratilgan say harakatlar. "Elektron hukumat" tizimidan "Raqamli hukumat" tizimiga o'tish bosqichi amalga oshiriladi, bunda barcha hujjatlar va idoralararo munosabatlar to'liq raqamli shaklga o'tkaziladi. Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishini yanada qulaylashtirish maqsadida ariza yozish, turli shakllarni to'ldirish kabi ortiqcha formal tartiblar bekor qilinadi. Shu bilan birga, davlat idoralari uchun zarur bo'lgan hujjatlarni fuqarolardan talab qilmasdan, mavjud elektron bazalar orqali mustaqil tarzda olish imkonini beruvchi yagona axborot tizimi joriy etiladi.

| <b>Mezoni</b>          | <b>Xorijiy yondashuvlar</b>                                 | <b>O'zbekiston tajribasi</b>                                          |
|------------------------|-------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| Raqamli texnologiyalar | Elektron hukumat tizimi keng rivojlangan (Estoniya, Koreya) | Yagona interaktiv portal va "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" dasturi |

<sup>8</sup> PF-158-сон 11.09.2023. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida  
<https://lib.bimm.uz/items/download/9186>



|                           |                                                                                      |                                                                     |
|---------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Fuqarolarning ishtiroki   | Fuqarolarni qaror qabul qilishga jalb qilish (Germaniya, B. Britaniya, Skandinaviya) | Prezident virtual qabulxonasi va jamoatchilik nazorati mexanizmlari |
| Xizmatlarning shaffofligi | Bozor mexanizmlari va xususiy sektor tajribasidan foydalanish                        | Davlat xizmatlari markazlari orqali korrupsiya xavfini kamaytirish  |
| Nazorat va sifat          | Mustaqil organlar va xalqaro standartlar asosida                                     | Davlat xizmatlari agentligi va milliy standartlar                   |

2017-2021-yillarda huquq va erkinliklar hamda qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarga taalluqli 158 ta qonun hujjatlari, jumladan, 102 ta yangi (jumladan, 14 ta xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilingan, 5 ta xalqaro shartnomalarga qoʻshilgan, 6 ta kodeks maʼqullangan) qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha 56 ta qonun qabul qilindi. |2018-2021 yillarda Davlat xizmatlari markazlarida jami 40 milliondan ortiq xizmatlar koʻrsatildi. Odamlar hayotini yengillashtirish maqsadida tuman (shahar) markazlaridan uzoqda joylashgan hududlarda 141 ta filial tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu xizmatlardan mamlakatimiz boʻyicha kuniga oʻrtacha 45-50 ming kishi foydalanmoqda<sup>9</sup>. Soʻnggi 4 yil ichida xizmatlar turi 4,5 barobarga koʻpayib, 37 tadan 172 taga, shundan 52 tasi bepul ekanligi inson qadri ulugʻligining hayotiy koʻrinishlaridan biridir<sup>10</sup>. Ayni paytda, davlat xizmatlarining soni 272 taga yetdi

| Oʻzbekistonda davlat xizmatlarining shakllanish bosqichlari |                                                                                                                                |
|-------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Yillar                                                      | Tadbirlar                                                                                                                      |
| 2003 yil                                                    | Tadbirkorlik subʼektlarini “yagona darcha” tamoyili boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazish tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi |

<sup>9</sup> Omonov B. Davlat xizmatlari asoslari. – T.: Tafsir Books, 2024. – B. 86-88.

<sup>10</sup> Otaxonov F. Inson qadrini taʼminlash – davlat taraqqiyotining bosh indikatori // “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi. 2022 yil 28 apreldagi 84-soni.



|                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|-------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                     | tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan amalga oshirildi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>2016 yil<br/>1<br/>yanvardan</b> | Inspeksiyalar negizida Tadbirkorlik sub'ektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari tashkil etildi.                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>2017 yil<br/>1<br/>fevraldan</b> | Yagona markazlarning tumanlar (shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha keyingi qadam bo'lib, vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini berdi. Natijada Yagona markazlar tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni bir necha baravar oshdi. |
| <b>2017 yil<br/>1 apreldan</b>      | Ro'yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirilganligi "Doing Business 2018" global reytingidagi "Biznesni ro'yxatdan o'tkazish" ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston mavqeini 24-o'ringan 11-o'ringa yaxshilashga xizmat qildi.                                   |

Davlat xizmati konsepsiyasiga oid mavjud nazariy qarashlar davlat xizmatini tavsiflovchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga olganligini ko'rish mumkin:

- 1) davlat xizmati - bu, birinchi navbatda, davlatning bir qator o'ziga yuklatilgan funksiyalarini bajaraishga qaratilgan faoliyat sifatida;
- 2) davlat xizmati – davlat boshqaruvi, davlat organlari va tuzilmalari sifatida;
- 3) davlat xizmatchilari davlat boshqaruv organlari va ularning apparatida lavozimlarni egallaydilar;
- 4) davlat xizmati davlat byudjeti asosida moliyalashtiriladi.

Sanab o'tilgan xususiyatlardan kelib chiqqan holda, davlat xizmati nazariy nuqtai nazardan adabiyotlarda to'liq asoslanadi; davlat organlari va ularning apparatida



budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan lavozimlarni egallab turgan xodimlarning davlat funksiyalarini bevosita bajarishi bo'yicha faoliyat<sup>11</sup>.

Albatta, davlat xizmatining asosiy maqsadi jamiyatga xizmat qilish, davlat mexanizmi samaradorligini oshirish, davlat, uning mansabdor shaxslari, organlarining asosiy funktsiya va vazifalarini sifatli bajarilishini ta'minlashdan iborat<sup>12</sup>. Uzoq va qisqa muddatli maqsadlar mamlakat taraqqiyotining muayyan bosqichida sodir bo'ladigan aniq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga bog'liq<sup>13</sup>.

Davlat xizmatlari bir nechta tur va sohalarga bo'linadi.

|                            |                                                                |
|----------------------------|----------------------------------------------------------------|
| <i>Ijtimoiy xizmatlar</i>  | Ta'lim xizmatlari                                              |
|                            | Sog'liqni saqlash xizmatlari                                   |
|                            | Ijtimoiy himoya xizmatlari                                     |
| <i>Ma'muriy xizmatlar</i>  | Pasport va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish.  |
|                            | Yer-mulk masalalari bo'yicha xizmatlar.                        |
|                            | Avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish. <sup>14</sup> |
| <i>Huquqiy xizmatlar</i>   | Notarial xizmatlar.                                            |
|                            | Sud tizimi orqali adolatni ta'minlash.                         |
|                            | Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam.          |
| <i>Iqtisodiy xizmatlar</i> | Biznesni ro'yxatdan o'tkazish.                                 |
|                            | Litsenziya va ruxsatnomalarni berish.                          |
|                            | Soliq va bojxona masalalarida ko'maklashish.                   |

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida elektron hukumat tizimini yanada

<sup>11</sup> Li A. Davlat xizmatini huquqiy tartibga solish. O'quv qo'llanma. – T.: TGYUU, 2021. B. 11-12.

<sup>12</sup> [https://27.101.212.134/cms/commonDown.do?DLD\\_CFM\\_NO=AQPZX3EKKWR03ZD2QW5E&FL\\_SEQ=85039](https://27.101.212.134/cms/commonDown.do?DLD_CFM_NO=AQPZX3EKKWR03ZD2QW5E&FL_SEQ=85039)

<sup>13</sup> Jurayev Sh. Public service. 2024. B. 8-9. <https://library-tsul.uz/public-service-jurayev-sh-2024/>

<sup>14</sup> Цифровая трансформация и государственное управление: научно-практическое пособие (Емельянов А.С., Ефремов А.А., Калмыкова А.В. и другие; ред. кол.: д.ю.н., доц., Л.К. Терещенко, д.ю.н., доц. А.С. Емельянов, д.ю.н., проф. Н.А. Поветкина). - "Инфотропик М...



rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida 2018-2021 yillarga mo'ljallangan tegishli dastur ishlab chiqilishi belgilangan. Bu va boshqa dolzarb vazifalarning muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarilishi davlat xizmatlari soni hamda sifatini oshiradi, xalq bilan muloqotni yanada yangi, yuqori bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Elektron hukumat uchun qo'yilgan dastlabki qadamalar mamlakatning 2012-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan. 2013-yil 18-yanvardagi Hukumat majlisida birinchi prezident Islom Karimov mamlakatda «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish Konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqish muhimligini qayd etib o'tgandi. Davlat organlari rahbarlari va mutaxassislaridan tuzilgan maxsus ishchi guruhi tomonidan mazkur yo'nalishda dunyo yetakchisi bo'lmish Korea Respublikasi, Estoniya, Daniya, Singapur va boshqa xorijiy mamlakatlarning «elektron hukumat» borasidagi ilg'or tajribalarini o'rganib, «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish bo'yicha Konsepsiya va Kompleks dasturni, shuningdek, 2013-2017-yillar uchun O'zbekiston Respublikasida Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish Kompleks dasturini ishlab chiqqanlar. Loyihalarni ishlab chiqishda korealik va boshqa xorijiy ekspertlar faol qatnashganlar, ushbu yo'nalish bo'yicha O'zbekistonning turli vazirliklari va idoralari mutaxassislari bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar, seminarlar va yig'ilishlar o'tkazilgan. «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish bo'yicha Konsepsiya va Kompleks dastur davlat organlarining o'zaro va aholi hamda tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarining o'sha paytdagi holati va yo'nalishlarini inobatga olgan holda, «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalarni belgilashgan. «Elektron hukumat» tizimini joriy etish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash uchun davlat organlari interaktiv xizmatlarining turli sohalari va yo'nalishlari bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar ishlab chiqilgan. «Elektron hukumat» tizimi joriy etilishi natijasida to'liq tranzaksiyalangan xizmatlarga o'tilishi kutilmoqda, bu esa, aholi va biznes vakillarining davlat xizmatidan foydalanishda turli instansiyalarga qatnashni va davlat xizmatchilari bilan bevosita



muloqotda bo'lishni istisno etgan. Bu, o'z navbatida, aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratishga va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilashga xizmat qilgan. Bugungi kunda xususan, 2025-yil holatiga ko'ra O'zbekiston elektron hukumat tizimi sezilarli darajada rivojlangan statistik tahlillarga ko'ra Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi 2025-yil boshiga kelib, my.gov.uz portalida 600 dan ortiq xizmatlar mavjud bo'lib, shundan 65% to'liq raqamlashtirilgan (ya'ni, foydalanuvchidan ariza qabul qilishdan tortib, natijani elektron ko'rinishda yetk-azib berishgacha). My.gov.uz va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali xizmat olgan foydalanuvchilar soni 8,5 milliondan oshgan. Murojaat soni esa 2025-yilning birinchi choragida my.gov.uz orqali amalga oshirilgan umumiy murojaatlar soni 30 milliondan oshgan, bu 2024-yilning shu davriga nisbatan 25% o'sishni anglatadi. e-hukumat xizmatlaridan mobil ilova orqali foydalanish 2024-yilga nisbatan 40% ga oshgan, bu esa foydalanuvchilar uchun qulaylik darajasi yuqorilaganini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilga kelib avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushi 72% ga yetgan.

2024–2025-yillar davomida quyidagi muhim voqealar O'zbekiston elektron hukumatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Hususan, 2020-yil 5-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi <sup>15</sup>farmoni qabul qilinganligi bu sohada amalga oshirilgan ishlarga juda ham katta turtki bergan desak to'g'ri bo'ladi.

- 2024-yil dekabrda “Raqamli O'zbekiston — 2030” dasturining ikkinchi bosqichi qabul qilindi. Bu bosqichda xizmatlar sifati, tezligi va shaffofligini oshirishga e'tibor qaratildi;
- 2025-yil fevralda esa Prezident qarori asosida “Raqamli identifikatsiya va biometrik tekshiruv” tizimi joriy etildi, bu esa ko'plab davlat xizmatlarida shaxsni avtomatik tasdiqlashni osonlashtirdi;
- 2025-yil mart oyida Viloyatlarda “Raqamli xizmatlar haftaligi” o'tkazildi, aholining e-hukumat xizmatlaridan foydalanish madaniyatini oshirishga xizmat qildi.

---

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son  
<https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



- Tashqi investitsiyalarga alohida e'tibor qaratildi, xususan, Koreya, Estoniya va Singapur kabi davlatlar bilan hamkorlikda yangi texnologiyalar joriy qilindi (AI, blockchain, data analytics).

### **O'zbekistonning elektron hukumat rivojlanish dinamikasi (2014–2024)**

| Yil  | EGDI<br>(e-government<br>development index)Ko'rsatkichi | Jahon Reytingi | Asosiy O'zgarish        |
|------|---------------------------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 2014 | 0.5434                                                  | 100-o'rin      | Boshlang'ich bosqich    |
| 2016 | 0.5434                                                  | 80-o'rin       | 20 pog'onaga ko'tarildi |
| 2020 | 0.66                                                    | 87-o'rin       | EGDI ko'rsatkichi oshdi |
| 2022 | 0.72                                                    | 69-o'rin       | 18 pog'onaga ko'tarildi |
| 2024 | 0.79                                                    | 63-o'rin       | V1 darajasiga chiqdi    |

Raqamli xizmatlar aholi hayotini osonlashtirishda davom etmoqda ya'ni so'nggi vaqtlarda raqamli xizmatlardan foydalanish bo'yicha aholi ko'nikmalarini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda va bu o'z natijasini ham bermoqda. 62 000 ga yaqin aholi, yoshlar va tadbirkorlar "my.gov.uz portalidan samarali foydalanish" mavzusidagi seminar-treninglarda raqamli xizmatlardan foydalanish bo'yicha o'qitildi. Bu raqamlar aholining raqamli savodxonligi oshib borayotganidan dalolat. 264 ta videorolik yaratilib, my.gov.uz ning YouTube kanaliga joylashtirildi. Ushbu videolar raqamli xizmatlar va ulardan foydalanish bo'yicha aniq va tushunarli ma'lumotlar beradi. my.gov.uz ning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari faolligi ham oshdi. Telegram kanalida obunachilari soni 230 000dan, you tube kanali a'zolari soni – 64 000dan, videolarini ko'rish esa 8,2 mln martadan, Instagram a'zolari soni – 5,2 mingdan oshdi. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli xizmatlarning aholi hayotiga chuqur kirib borayotganidan dalolatdir.

### **Xulosa**

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatlari tizimi zamonaviy davlat boshqaruvining muhim tarkibiy elementi sifatida jadal rivojlanmoqda. Davlat xizmatlarining strategik rivojlanishi quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilmoqda:



institutlarni isloh qilish, kadrlar malakasini oshirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish. Bu yo'nalishlar davlat boshqaruvida professionalizmni ta'minlash, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya va boshqa ilg'or davlatlarda davlat xizmatlari tanlov asosida, shaffof va karyera rivoji uchun qulay shart-sharoitlarda tashkil etilgan. Jumladan, AQShdagi "USAJobs" platformasi, Germaniyadagi "Beamte" modeli yoki Fransiya'dagi aniq mezonlarga asoslangan tanlov tizimlari O'zbekiston uchun foydali namuna bo'la oladi. Bu kabi tajribalarni o'rganish va milliy kontekstga mos tarzda tatbiq etish, davlat xizmatining professional, samarali va barqaror tizimini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bosqichma-bosqich xalqaro tajriba asosida chuqurlashtirilmoqda. Kelgusida ushbu yo'nalishda normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, xizmatlar sifati va raqamli infratuzilmani rivojlantirish, xodimlarni tanlash va ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish asosiy ustuvor vazifalardan bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda fuqarolarga qulay, adolatli va sifatli xizmat ko'rsatish tizimini yaratishga zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Veber.M. *"Economy and Society."* –T.: University of California Press, 1978. – P. 957.
3. Omonov. B. Davlat xizmatlari asoslari. –T.: Tafsir Books, 2024. – B. 21.
4. Охотский Е.В. Государственная служба в Парламенте. – М.: 2002. – В. 14.
5. Бахрах.Д.Н – А.П Административное право. – М.,1993. – В. 8.



6. Omonov B. Davlat xizmatlari asoslari. –T.: Tafsir Books, 2024. – B. 36. 86-88.
7. Komilov. S “Davlat xizmati va boshqaruvi.” –T.: TDYUU, 2015. – B. 112.
8. Otaxonov F. Inson qadrini ta’minlash – davlat taraqqiyotining bosh indikatori // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2022 yil 28 apreldagi 84-soni.
9. Механизмы совершенствования системы государственных услуг (на примере республики узбекистан)
10. <http://elibrary.ru/item.asp?id=32501639> Shu yerda: Omonov B. Davlat xizmatlari asoslari. –T.: Tafsir Books, 2024. – B. 90.
11. Li A. Davlat xizmatini huquqiy tartibga solish. O'quv qo'llanma. – T.: TGYUU, 2021. B. 11-12.
12. [https://27.101.212.134/cms/commonDown.do?DLD\\_CFM\\_NO=AQPZX3EK KWR03ZD2QW5E&FL\\_SEQ=85039](https://27.101.212.134/cms/commonDown.do?DLD_CFM_NO=AQPZX3EK KWR03ZD2QW5E&FL_SEQ=85039)
13. Jurayev Sh. Public service. 2024. B. 8-9. <https://library-tsul.uz/public-service-jurayev-sh-2024/>
14. Цифровая трансформация и государственное управление: научно-практическое пособие (Емельянов А.С., Ефремов А.А., Калмыкова А.В. и другие; ред. кол.: д.ю.н., доц., Л.К. Терещенко, д.ю.н., доц. А.С. Емельянов, д.ю.н., проф. Н.А. Поветкина). - "Инфотропик М...
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

#### Internet saytlari

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. <https://davxizmat.uz>
3. <http://strategy.regulation.gov.uz>